

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**“FARG‘ONA VODIYSI VILOYATLARIDA TURIZM, GID,
TARJIMONLIK VA MEHMONXONA SOHALARINI
RIVOJLANTIRISH HAMDA CHET TILLARINI O‘QITISHNING
YANGI ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

MATERIALLARI

13-14-IYUN, 2025-YIL

ANDIJON - 2025

47	Mamasaoliyev Sultonmurod Olimjon o'g'li THEORETICAL FOUNDATIONS AND LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT IN COGNITIVE LINGUISTICS	481
48	Mamasidiqov Barkamol Murodilla o'g'li PSIXOLINGVISTIKANING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	486
49	Mamasoliev Gulchexra Abduxalilovna, Axmatova Aynisa Abdilbaitova FRANSUZ VA O'ZBEK TILI FONOLOGIYASIDA URG'ULARNING QIYOSIY DARAJALANISHI	489
50	Mamatkulov A.L ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI	493
51	Mamatova Muslima Sanjarbek qizi, Kurbanova Sevara MODERN LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES	497
52	Mansurova Nafisa Qamariddinovna MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	498
53	Maraimova Munavvarxon Sharobiddinovna SO'ZLASHUVDA YO'Q BO'LGAN TERMINLAR: IZOHLI VA TAVSIFIY TARJIMANING ZARURIYATI HAQIDA	502
54	Maraimova Munavvarxon Sharobiddinovna, Sedamatova Mashhura To'lqinbek qizi ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI	506
55	Matnazarova Khayriniso UILYAM SHEKSPIR KOMEDIYALARIDA DISKURS TENORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	510
56	Maxmudova Shodiya, Kurbanova Sevara MODERN LINGUISTICS	513
57	Mirzaboyeva Nafisa Muxnatdinovna MEDICAL EPONYMS NAMED AFTER GERMAN SCIENTISTS	516
58	Mirzayev To'xtasin FRANSUZ TILIDAGI ENIGMALARNING LEKSIK VA GRAMMATIK TAHLILI	519
59	Mirzayeva Irodaxon Xamdorovna ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKDA RUHIYATGA OID TIBBIY TERMINLARNI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR	522
60	Mukhtorova Shodiya RESTAURANT INTERACTIONS	528
61	Murod Sodiqov FRANSUZ TILIDA LEKSIK TEJAMKORLIKNING XUSUSIYATLARI: LINGVISTIK VA FUNKSIYAVIY YONDASHUV	532
62	Mutalibjonova Ruxshona Ozodbek qizi ZAMONAVIY ILM- FANDA OLIMA AYOLLARNING ROLI	536
63	Nasriddinov Muhammadziyo THE TRANSLATORS VOICE: TRACES OF AUTHORSHIP IN TRANSLATED TEXTS	541
64	Nazarova Nargiza, Abduraxmonova Sevinch PROBLEMS OF MODERN LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES	546
65	Nematillayev Zayliddin THE ROLE OF TRANSLATION IN THE MIDDLE AGES: A BRIDGE BETWEEN CIVILIZATIONS	548
66	Norbekova Ruhshona Ulug'bek qizi, Bozorova Gulmira Maxamadaliyevna CHET TILI DARSLARIDA TALAFFUZI TO'G'RI SHAKLLANTIRISH (NEMIS TILI MISOLIDA)	551
67	Nortoyeva Nodiraxon Muxammadaliyevna FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLIK DERIVATLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	556
68	Numonjonova Gulnoza CONTEXT, PRAGMATICS AND EQUIVALENCE IN THEORETICAL TRANSLATION	558
69	Olimjonova Moxinur Mirzajon qizi O'ZBEK VA NEMIS TILLAR TARJIMASIDAGI MUAMMOLAR	560
70	Pattojonova Maftuna Ulug'bek qizi LA VALORISATION DA L'ECOUTE DQNS L'ENSEIGNEMENT DES LANGUES ETRANGERES	563
71	Qambarov Nodirbek Mamatqodirovich DIE BEDEUTUNG DER PSYCHOLINGUISTIK IM DAF-UNTERRICHT	565

Bassnett, S. (2002). Translation Studies. Routledge.

Nida, E. A., & Taber, C. R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Brill.

UILYAM SHEKSPIR KOMEDIYALARIDA DISKURS TENORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Matnazarova Khayriniso

Urganch State University

Department of Roman-German Philology

doctorate

student

xayrinisomatnazarova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada U.Shekspir komediyalaridagi hukmron, teng va tobe tenor turlari o'rganilgan. U. Shekspir hayoti va uning ismining ma'nosiga doir ma'lumotlar aniqlangan. U.Shekspir komediyalarida diskurs tenorining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье исследуются доминирующий, равный и подчинённый типы теноров в комедиях У. Шекспира. Представлены сведения о жизни У. Шекспира и значении его имени. Проанализированы особенности дискурсивного тенора в комедиях У. Шекспира.

Annotation: This article examines the dominant, equal, and subordinate types of tenor in the comedies of W. Shakespeare. It is provided information about W. Shakespeare's life and the meaning of his name. The distinctive features of discourse tenor are analyzed in W. Shakespeare's comedies.

Kalit so'zlar: Diskurs, tenor, komediya, hukmron tenor, teng tenor, tobe tenor.

Ключевые слова: Дискурс, тенор, комедия, правящий тенор, равный тенор, подчинённый тенор.

Key words: Discourse, tenor, comic superior tenor, peer tenor, subordinate tenor.

Bugun biz izlanish olib borayotgan diskurs tenori, ingliz mashhur dramaturgi U. Shekspir tragediyalari orqali tahlil qilinadi. XVI- asrning oxirlarida ya'ni uyg'onish davrida Angliya milliy dramaturgiyasi yaratildi. O'sha davrda teatr bilan bog'liq bo'lgan insonlar xalqning e'tirofida bo'lgan.. Shekspir so'zining ma'nosi "nayza o'ynatuvchi degan ma'noni bersa,⁴⁹ boshqa bir adabiyotda "nayzani larzaga keltiruvchi " ma'nosini beradi.⁵⁰ Ko'p adabiyotlardan bizga ma'lumki, U. Shekspir 1564 yil 23-aprelda tug'ilgan deyilgan. Ammo uning aniq sanasi ma'lum bo'lmagan. Aslida Stradfordning Troitsa cherkovi daftarida "Jon Shekspirning o'g'li Uilyam 1564-yil 26-aprelda cho'qintirildi" deyilgan. O'sha davrdagi urfodatga ko'ra, bola uch kunlik bo'lganida cherkovga olib borilgan. Shunga asoslangan holda buyuk dramaturg olim 23-aprelda tug'ilgan deb hisoblanadi.⁵¹ Uilyam Shekspir asarlari badiiy diskursida hukmron tenorning o'ziga xosligi, avvalo, ijtimoiy rollar va qudrat munosabatlarining murakkab, ko'p qatlamli ifodasida namoyon bo'ladi. Shekspir dialoglarida hukmron (dominant) tenor ko'pincha yuqori ijtimoiy mavqega ega qahramonlar nutqida yuzaga chiqadi, biroq bu tenor qat'iy va bir yoqlama emas - u kontekst va suhbatdoshga qarab dinamik tarzda o'zgaradi⁵². Masalan, "The Winter's Tale" komediyasida Leontes bir vaqtning o'zida podsho, do'st, ota va er sifatida turli nutq uslublarini namoyon qiladi: u ba'zan buyruq ohangida, ba'zan esa teng yoki hatto bo'ysunuvchi (subordinate) tenor bilan so'zlaydi. Bu esa Shekspir diskursida hukmron tenor bir tomonlama hukmronlik emas, balki ijtimoiy rol va vaziyatga moslashuvchanlik bilan ajralib turishini ko'rsatadi.

Shekspir asarlarining yana bir o'ziga xos jihati - hukmron tenor orqali jamiyatdagi ierarxiya, shaxslararo munosabatlar va axloqiy ziddiyatlarni chuqur ochib berishidir. Masalan, Leontes va Kamillo o'rtasidagi dialogda Leontesning shubha, ishonchsizlik va hukmronligi (superior tenor) Kamilloning sadoqatli va bo'ysunuvchi nutqi (subordinate tenor) bilan kontrastlanadi. Bu orqali Shekspir ijtimoiy mavqe va shaxsiy munosabatlarning murakkabligini, nutqdagi kuch va zaiflik o'zgarishini badiiy ifodalaydi.

Yana bir muhim xususiyat - Shekspirda hukmron tenor ko'pincha savol-javob, buyruq, kinoya, maqtov yoki tanqid orqali yuzaga chiqadi va har bir qahramonning xarakteri, axloqiy pozitsiyasi va voqelikka munosabatini ochib beradi. Bu usul

⁴⁹ <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/shekspir-hayoti-va-ijodi>

⁵⁰ F. Sulaymonova. Shekspir O'zbekistonda, Toshkent, O'zbekiston CCP "Fan " nashriyoti, 1978, 152 bet—b.31

⁵¹ <https://www.gov.uk/government/news/globe-theatre-and-theatre-forum-in-tashkent.uz>

⁵² https://bahripublishations.co.in/PDF/JALS/JALS_Vol.15No.1-Jan-Jun-2025/50--THE-TENOR-OF-DISOURSE--FULLY-FINAL.pdf?_t=1745926547

asarlarni zamon va millat tanlamas badiiy kuchga ega qiladi, chunki har bir davr va jamiyat o'zining ijtimoiy va axloqiy muammolarini Shekspir qahramonlari nutqida ko'ra oladi. Uilyam Shekspir asarlari badiiy diskursida teng tenorning o'ziga xosligi, avvalo, qahramonlar o'rtasidagi muloqotda ijtimoiy mavqe yoki kuch farqlari yo'qligi, ya'ni tenglik va ochiqlik asosida qurilgan nutqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shekspir dialoglarida bunday tenor ko'pincha do'stlar, sevishganlar yoki bir-biriga yaqin insonlar o'rtasida kuzatiladi⁵³.

Teng tenor Shekspir asarlarida bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qahramonlar bir-biriga hurmat va ishonch bilan, ochiq va soddalik bilan murojaat qiladi. Nutqda buyruq, tahdid yoki pastga olish ohangi yo'q, aksincha, fikr almashish, maslahatlashish, his-tuyg'ularni erkin ifodalash ustuvor bo'ladi.

Bunday diskurs orqali Shekspir insonlar o'rtasidagi do'stlik, muhabbat va hamkorlik g'oyalarini kuchli badiiy vosita sifatida ko'rsatadi.⁵⁴

Uilyam Shekspir asarlari badiiy diskursida tobe tenorning o'ziga xosligi, avvalo, qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy, mavqeyi yoki ruhiy jihatdan pastroq pozitsiyani ifodalovchi nutqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tobe tenor Shekspir pyesalarida ko'pincha xizmatkorlar, mulozimlar, bo'ysunuvchilar yoki jamiyatda zaifroq mavqega ega shaxslar nutqida ko'zga tashlanadi. Bu holatda qahramonlar o'z so'zlarida itoatkorlik, ehtirom, qo'rquv yoki ishonuvchanlikni ifoda etadilar. U. Shekspir tobe tenor orqali insoniy munosabatlardagi ikkiyuzlamachilik, bo'ysunuvchilik va sadoqat masalalarini badiiy ifodalaydi.

Tobe tenorning yana bir xususiyati - bunday nutqda qahramonlar ko'pincha o'z fikrini ochiq aytmaydi, buyruq va ko'rsatmalarga itoat qiladi, o'zini past tutadi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tabaqalanish va hukmron munosabatlarini ko'rsatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shekspir asarlarida tobe tenor yordamida jamiyatdagi adolatsizlik, manfaatparastlik va insoniy zaifliklar teran yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda Shekspir asarlari badiiy diskursida hukmron tenor o'ziga xos tarzda ko'p qirrali, kontekstual va ijtimoiy-psixologik jihatdan chuqur ifodalanadi. Bu esa uning asarlarini har doim dolzarb va universallikka ega qilib turadi Shekspir badiiy diskursida teng tenor ijtimoiy va axloqiy tenglik g'oyalarini ifodalovchi muhim nutqiy vosita sifatida ajralib turadi. Shekspir badiiy diskursida tobe tenor - itoatkorlik, sadoqat va bo'ysunuvchanlik bilan ajralib turadi, hamda ijtimoiy va psixologik ziddiyatlarni chuqur ochib beriladi.

⁵³ https://uz.wikipedia.org/wiki/William_Shakespeare

⁵⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/William_Shakespeare

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matnazarova X.S. The Tenor of Discourse in Linguistics//Journal of Advanced Linguistic Studies Delhi University Vol. 12, No. 1, JAN-JUN 2025 (ISSN 2231-4075),–Bahri publications,–Bb,521-528 <http://bahripublications.co.in/index.php/journal-of-advanced-linguistic-studies>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/William_Shakespeare
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/shekspir-hayoti-va-ijodi>
4. F.Sulaymonova. Shekspir O'zbekistonda, Toshkent,O'zbekiston CCP “Fan” nashriyoti,1978, 152 bet—b.31
5. U.Shekspir.Tanlangan asarlar.Toshkent.G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti.1985–B.76
6. Shakespeare W. Winter's Tale. – Global grey, 2019 – P.65
7. Shekspir U..Tanlangan asarlar.Toshkent.–G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti,1985–B.50
8. B.Mowat,P.Werstine “The taming of the Shrew” W.Shakespeare <https://shakespeare.folger.edu> –P.113

Modern Linguistics

Maxmudova Shodiya,

student of Andijan State Institute of Foreign Languages

Academic supervisor: **Kurbanova Sevara**

Abstract: This article explores key challenges facing modern linguistics and translation studies in an era shaped by globalization, technological advancement, and sociocultural transformation. It examines five central issues: the rapid evolution and diversification of language, the limitations and implications of machine translation, cultural and ideological complexities in translation practice, theoretical fragmentation within both fields, and the ethical dilemmas faced by translators. By analyzing these interconnected problems, the article highlights the need for interdisciplinary collaboration and ethical awareness in both academic research and professional translation. The conclusion calls for a balanced approach that values